

INNOVATION TECHNOLOGIES FROM FOYDALANISHNING RIVOJLANISH TENDENCIES

Sharipova Shaxnoza Xasanovna

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti o'qituvchisi (PhD)

DEVELOPMENT TENDENCIES OF USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES

Sharipova Shakhnoza Khasanovna

Teacher of the Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute (PhD)

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Шарипова Шахноза Хасановна

Преподаватель Узбекско-Финляндского педагогического
института (PhD)



shaxnoza.00@mail.ru

<https://orcid.org/0202-0240-2242-0442>

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarni bilimdon, har tomonlama yetuk, ijodkor-kreativ qilib tarbiyalash, ta'lif-tarbiyaning xilma-xil metodlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, ijodiy yondashuv asosida metod hamda texnologiyalarning asosiy mexanizmlarini tadqiq etish muhim pedagogik muammolardan biri ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, ta'lif-tarbiya, kreativ, aqliy faoliyat, iqtidor, kompetensiya, tendensiya, umumlashtirish tamoyili, tafakkur.

Annotation: This article states that one of the important pedagogical tasks is to educate young people who are knowledgeable, mature in all aspects, creative, diverse in teaching methods, who are able to competently choose modern pedagogical technologies, and study the basic mechanisms of methods and technologies based on a creative approach emphasized.

Key words: Pedagogical technology, education, creative, mental activity, talent, competence, inclination, principle of generalization, thinking.

Аннотация: В данной статье констатируется, что одной из важных педагогических задач является воспитание у молодежи знающих, зрелых во всех аспектах, творческих, разнообразных методов обучения, умеющих грамотно выбирать современные педагогические технологии, исследования основных механизмов методов и технологий, основанных на творческом подходе подчеркнули.

Ключевые слова: педагогическая технология, воспитание, творческая, умственная деятельность, талант, компетентность, склонность, принцип обобщения, мышление.

Kirish. Ta'lif muassasalarida beriladigan ta'lif-tarbiya mazmuni tarixiy xususiyatga ega. Kishilik jamiyatining taraqqiyoti barcha bosqichlarda yosh avlodga beriladigan ta'lif mazmuni, uning hajmi, muayyan ijtimoiy tizimning iqtisodiy talabi va ehtiyoji, fan-texnika taraqqiyoti darajasi, madaniyati holati bilan belgilanib kelingan. Juhon psixologiyasida to'rtta tan olingan va qisman bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan yo'naliishlar mavjud: psixotahlil, bixevoirizm, gumanistik psixologiya va kognitiv. Bu yo'naliishlarning har biri,

inson haqida, uning rivojlanishi, uning harakati haqida o'z tasavvurlariga ega.

Adabiyotlar tahlili. A.A.Verbinskiy fikricha, to'plangan hayotiy tajriba, ya'ni tarixiy bilimlarni o'z tili orqali aks ettirish va amaliy faoliyatning o'zi, assimilyatsiya (lot. "assimilatio" – singdirmoq, o'zlashtirmoq) tajribasi tufayli ong, tabiat, jamiyat, odamlar va o'ziga subyektiv insoniy munosabatlar majmuiga aylanadi. Yana olim aytadiki, "ong aqliy faoliyat" sifatida sensor va mantiqiy bilimlarning dinamik korrelyatsiyasi ularning bir butun bo'lib

ishlaydigan va har bir shaxsni belgilaydigan tizim ekanligini tushuntirgan [1].

Yangilikka intilish insonni faollikka undaydi. Bunday faoliyat jarayonida muhitning ideal modeli yaratiladi. Shaxs esa jarayonning faol subyekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Insonning asosiy faoliyati o'zini o'rabi turgan muhitdagi voqeahodisalarning mohiyatini anglashga yo'naltiriladi. Bilish natijasida shaxsning bilim olish, atrof muhitni o'zlashtirish, voqelikni anglash, ma'naviy-axloqiy hamda intellektual rivojlanish ehtiyojlari qondiriladi.

Bilish insonning o'yash, fikrlash, izlanish, voqeahodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqatiga egaligini anglatadi. Ajdodlar merosi esa xuddi mana shunday layoqatni faollashtirishga xizmat qiladi. Bilimlar yangiliklarni o'zlashtirish jarayonining mahsuli hisoblanadi. Yangi usullarni qo'llash jarayoni faol, ijodiy xarakter kasb etishi uchun talabalarga ularni intellektual rivojlanish, o'yashga undash, mushohada qilish, aniq xulosalar chiqarish, tahlil qilish imkonini beradigan didaktik vositalar taqdim etilishi kerak. Bunday didaktik vositalar sirasiga xalqning ko'p asrlik ijtimoiy tajribasini o'zida mujassamlashtirgan badiiy adabiyot namunalari, hikmatlar va maqollarni kiritish mumkin [2].

Markaziy Osiyoda yashagan buyuk allomalar shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun faol o'qitish metodlariga alohida e'tibor qaratganlar. Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy kabi mutafakkirlar o'z asarlarida ilg'or o'qitish metodlariga alohida e'tibor qaratganlar. Bilish metodlari yaratuvchanlik xarakteriga ega. Allomalar bilish metodlarini empirik va aqliy bilish metodlariga ajratganlar. Empirik bilish metodlari sirasiga mutaxassislar kuzatish, tajriba, tavsiflash, o'lhash kabilarni kiritganlar [3].

Buyuk alloma Forobiy gumanitar yo'nalishdagi fanlarni o'rganishda va o'rgatishda katta yutuqlarga erishgan bo'lib, bilish faoliyatini tashkil etish masalalari bo'yicha ham anchagina bir qator tavsiyalarni ishlab chiqqan. Uning yozishicha, yaxshi nazariyotchi bo'lish uchun nazariya qaysi fanga taalluqli bo'lsa-da, quyidagi uchta shartga rioya qilish shart deb belgilagan:

1. Mazkur fan kelib chiqishidagi barcha tamoyillarni to'liq bilish;

2. Mana shu tamoyillardan va mazkur fanga doir ma'lumotlardan tegishli xulosalar chiqara bilish;

3. Noto'g'ri nazariyani rad eta bilish va haqiqatni yolg'ondan farqlash, xatolarni to'g'rilash uchun boshqa mualliflarning fikrlarini tahlil qila bilish. Forobiy bilim berishda va o'qitishda o'zining ana shu tamoyillariga amal qilgan.

Avlodlardan ajdodlarga shaxsiy iqtidor, nutq, maqsadga yo'naltirilgan holda mehnat qilish, fikrlash faoliyati, faoliyat jarayonida o'z xattiharakatlarining mohiyatini anglash meros bo'lib o'tadi.

Ajdodlarimiz merosi yosh avlodning muayyan iqtidorlari yordamida ularning muayyan sohasidagi faoliyatlar rivojlanishiga asos bo'ladı. Bu esa yosh avlodning rivojlanishi uchun potensial imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Yosh avlodda bilish faolligining rivojlanishi ko'p jihatdan mavjud shart-sharoitlar va ta'lim-tarbiya mazmuni bilan bevosita bog'liq. Ta'lim-tarbiya mazmunida xalq ijtimoiy tajribasining ifodalanishi jarayon subyektlarida bilish faolligining vujudga kelishiga asos bo'ladı. Ularda layoqatlar, iqtidor va talentning yorqin tarzda namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Yoshlarning bilish layoqatining shakllanishida ajdodlar merosi va pedagogik shart-sharoitlar muhim o'rin egallaydi. Mazkur didaktik vositalar talabalarning anatomik, morfologik layoqatlarini ham rivojlanishiga ko'maklashadi [4].

Tahlillar va natija. Yoshlardagi rivojlanish ko'rsatkichlari ularning integrativ xarakterdagi layoqatlar orqali o'z ifodasini topadi. Bunda umumiyligi va individual layoqatlar farqlanadi. Umumiyligi layoqatlar shaxsning faoliyatning turli ko'rinishlaridagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Bu aqliy layoqatlar, qo'1 harakatlarining aniqligi va nozikligi, xotiraning rivojlanishi, nutqning takomillashuvida o'z aksini topadi.

Maxsus layoqatlar esa shaxsning o'ziga xos layoqatlari sifatida namoyon bo'lib, faoliyatning muayyan sohasidagi muvaffaqiyatlarini belgilaydi. Bunday layoqatning namoyon bo'lishi uchun shaxs o'ziga xos iqtidor egasi bo'lishi lozim. Ular sirasiga: matematik, musiqiy, lingvistik, adabiy, badiiy-ijodiy, texnik, sportga oid, tashkilotchilik layoqatlarini kiritish mumkin. Iqtidor faoliyatning muayyan sohasida yaqqol namoyon bo'ladı. U ko'pincha san'at va fanning muayyan sohasida

faoliyat ko'rsatish asosida shaxsning rivojlanish darajasini ifodalaydi. Iqtidor har doim shaxs bilish faoliyatining tarkibida muayyan faoliyatni bajarish orqali namoyon bo'ladi. Ushbu faoliyatni shaxsning o'zi mavjud shart-sharoitlar, ijtimoiy tajriba va hayotiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda tanlaydi. Insonning mazkur faoliyatda muvaffaqiyat qozonishi ijtimoiy tajribaning o'zlashtirilishi va muntazam boyitilishiga bog'liq. Inson intellektual faoliyatining taraqqiyotida ijtimoiy tajribani o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda bo'lajak kadrlarni zamonaviy faoliyat turlari bilan shug'ullanishlarida innovatsion tafakkur va kasbiy madaniyat muhim omil hisoblanadi. Davrimizda axborot texnologiyalari, zamonaviy va boshqa yangi sohalar bilan bog'liq faoliyat turlari ommalashmoqda hamda yangicha ishslash va daromad topish mezonlari shakllanmoqda. Shuningdek, yangi ming yillikda shakllangan yangi faoliyat turlari mamlakatlar uchun keng imkoniyatlar, zamonaviy xizmatlar bozori, global faoliyat maydonini yaratishi bilan ham jamiyat uchun, ham davlat uchun yangi imkoniyatlar taqdim etmoqda.

Tafakkur shaxs bilish faoliyatining asosiy ko'rinishi hisoblanadi. U g'oyalarning harakatlanishi hamda narsa va buyumlarning o'ziga xos jihatlarini kashf etishni anglatadi. Tafakkurning mahsuli muayyan g'oyalar va fikrlardir. Tafakkur inson ruhiyatining ichki xususiyati bo'lib, uning rivojlanishi shaxs xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Har bir shaxsning tafakkur tarzi o'ziga xosdir. Ajdodlar tafakkurining mahsuli bo'lgan ilm, ijod yosh avlod ongiga samarali ta'sir ko'rsatib, uning bilish faoliyatini jadallashtirishga xizmat qiladi. Buning uchun esa mamlakatda yangi sohalarni rivojlanishi uchun sharoit yaratish, an'anaviy sohalarni yangicha ishslash bosqichiga o'tkazish talab etilmoqda. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida ham yangicha mezonlar asosida bilim berish, faoliyatga yo'naltirish shakllanmoqda.

Binobarin, innovatsion texnologiyalardan foydalanish jarayonida elektron ta'lim resurslari, nafaqat hisoblash vositasi, balki o'qitish, talabalarni intellektual bilish saviyasini rivojlanirish va ularning media madaniyatini shakllantirish manbai sifatida ham foydalanishi lozim. Zamonaviy ta'limda kompyuter dasturlarini modellashtirish,

monitoring qilish va o'qitish keng qo'llanilmoqda. Kompyuter yordamida innovatsion texnologiyalardan foydalanish jarayonida yangi texnologiyalarning yaratilishi, integratsion yondashuv asosidagi nazariya va metodikaning dolzarb muammolaridan biri deb hisoblanadi.

Buning uchun multimediali o'qitish asosida samarali texnologiyalarni yaratish, ushbu amaliyotni eksperimental o'rganish uchun yagona ma'lumotlar bankini yaratish, o'qituvchilar malakasini oshirish tizimini yaratish va takomillashtirish talab etiladi. Ta'lim berishning an'anaviy shakllarida o'rganuvchiga axborotni tez va ko'p hajmda yetkazish assosiya mezon bo'lgan bo'lsa, bugun o'rganuvchini kashf etish, uning ichki iqtidorini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, o'zini ko'rsatish uchun unga ta'sir ko'rsatish va bu orqali uni ma'lum faoliyatga yo'naltirish ustuvorlik qilmoqda. Shu bois ham tadqiqotlarda bo'lajak kadrlarni faoliyatga yo'naltirishning amaliyot bilan bog'liq yangi shakllarini yaratish, ularning emotsiyonal holatiga ta'sir o'tkazish orqali yo'naltirish vazifalariga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Xulosa. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish masalasi bu boradagi ishlarning bir ko'rinishi sifatida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki bugun ta'limda yangicha o'qitish tizimlaridan foydalanish yangi bosqichga olib chiqilayotgan soha sifatida tan olinib, uni rivojlanirish va bu faoliyatga ko'plab yoshlarni jalb qilishning yangicha mexanizmlarini yaratish mazkur muammoni yechishda muhim omil bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Вербицкий А.А. Личностные и компетентностные подходы в образовании: проблемы интеграции. – Москва: Логос, 2011 . – 336 с.
2. Djurayev R. Ta'limda interfaol texnologiyalar. –Toshkent, 2010. -87 b.
3. Ziyomuhamedov B. "Pedagogika". Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. -T.: "Turon Iqbol", 2006. –112 b.
4. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 2 jildlik. 1-jild / Tuzuvchilar: K.Hoshimov, S.Ochil. – T.: O'qituvchi, 1995. – 460 b.